

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Omonova Zarina Xudoymurodovna

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turli davlatlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashning zarurati va ahamiyatli jihatlari yoritib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qoʻmitasini (IASC), korporatsiya, milliy hisob, transmilliy*

Abstract: *This article highlights the need and important aspects of preparing financial statements based on international standards by different countries*

Key words: *international standards of financial reporting, International Accounting Standards Committee (IASC), corporation, national account, transnational*

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarixan yangi boʻlib, yildan yilga takomillashib va takomillashtirilib borilmoqda. Sohada dunyoning turli mamlakatlaridan mutaxassislar jalb etilib, ish olib bormoqda. Oʻtgan yillar bir qancha standartlar joriy etilgan, birlashtirilgan, muomaladan chiqarilgan. Yangi standartlar joriy etilganda, faqat ruxsat etilgan muddatgacha eski standartlardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻlishini amaliyot ham tasdiqlab turibdi.

BMT davlatlararo ekspert guruhi tanlab olingan bir qancha yirik korporatsiyalar buyicha hisob va hisobotni tashkil etish amaliyotini hamda 46 ta milliy hisob tizimi asosida tayyorlangan hisobotlarni oʻrganib chiqib, koʻpgina koʻrsatkichlar boʻyicha milliy hisob tizimlarini bir biri bilan taqqoslab boʻlmasligi haqidagi oʻrinli xulosaga keldi. Markaz hisobotida shunday xulosalar mavjud: ayrim rivojlangan mamlakatlarda koʻp sonli kompaniyalar hisob davrining oxirigacha eʼlon qilingan foydaga tenglash maqsadida turli rezerv(zahira) tizimlarini ishlatadilar. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq boʻldiki, Milliy hisob tizimlarida amaldagi barcha belgilari boʻyicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy tizimlarni ajratib turgan bir qancha farqlar mavjud. Mutaxassislar tomonidan 13 ta milliy hisob tizimining oʻrganilishi shuni kursatdiki, ulardan faqat 4 tasidagina resurslarni baholash uslubiyati davlat tomonidan qonuniy ravishda belgilab qoʻyilar ekan. Bu davlatlar Germaniya, AQSH, Yaponiya, Angliya boʻlib, 31 % ni tashkil etadi. Natija shuni koʻrsatadiki, resurslar eng kam baholash usulida hisoblanib, asosan davlatning foydasini koʻzlaydi. Bu holatda kompaniya foyda summasini maksimal darajada koʻrsatishga majbur boʻladi. Bunday milliy tizimlarning yana 23 tasi oʻrganilganda, ulardan 8 tasida davlat uchun emas, balki korxonalar uchun qulay sharoit yaratilar ekan. Bu davlatlar Belgiya, Avstraliya, Kanada, Italiya, Fransiya, Shvesiya, Shveysariya, Norvegiya boʻlib, 35% ni tashkil etadi. Xulosa shuki, tashqi bozorda ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va qator boshqa sharoitlarni taqazo etadi. Milliy buxgalteriya hisobi yangi yunalishlarni ishlatish hisobiga mamlakat iqtisodi

rivojlanishi ma'lum taktik va strategik vazifalarini yechishga imkon berishini ishonch bilan aytish mumkin.

Soha vakillarini Buxgalteriya hisobi milliy tizimlari tahlili nuqtai nazaridan firmalarning mablag' va resurslarini chet el valyutasida aks ettirilishi qiziqtiradi.

Balans tuzilgan sananing joriy kursi bo'yicha baholangan chet el valyutasida balans moddalarining kengayish darajasi bo'yicha tahlil o'tkazilib ma'lumotlar tuzilganda, bu jihatdan firmalarga ko'proq darajada qulayliklar Yaponiya, Norvegiya, Angliya, Niderlandiya, Shveysariya, Frantsiya mamlakatlarida, va kamroq qulayliklar Avstraliyada va AQSH firmalarida mavjud ekanligi aniqlangan.

Milliy hisob tizimlarida iqtisodni tartibga solishga davlatning ta'sir darajasi ham soha mutaxassisleri tomonidan tahlil qilindi. Argentina, Meksika, Peru, Filippin, Venesuela milliy tizimlari iqtisodni tartibga solishda sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi davlatlar toifasiga kiradi. Kolumbiya, Nigeriya va Zairda milliy hisob tizimining ishlatilish vositasi bilan davlat iqtisodiga qisman ta'sir etadigan davlatlardir. Qolgan mamlakatlarda turli darajada 20 dan 70% gacha davlatning oraliq ta'siri kuzatiladi. Xalqaro hisob amaliyoti tahlili ularning shakllanishining davlatlararo tashkilotlar, buxgalteriya hisobi xalqaro professional tashkilotlari, xalqaro profsoyuz tashkiloti ta'sirida shakllanishining turli yo'nalishlarini ham ajratishga imkon yaratdi. Mamlakatlararo tizimning shakllanishi bilan parallel holda xalqaro buxgalteriya hisobi tizimi, yagona hisob va hisobot berish xalqaro tizimiga milliy regional hisob tizimlarining yaxlit bir butun qilib birlashtirilishi bo'lib o'tdi.

Bizga ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmi dunyoda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kuchayishi, ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi mamlakatlararo va qit'alararo mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va ixtisoslashuvi bilan xarakterlanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiya natijalaridan foydalanish natijasida chet el investitsiyasini jalb qilish, ishlab chiqarishning baymalmilalalashuvi(internatsiyaonallashuvi) transnatsional va multinatsional korporatsiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekistonda ham mashhur bo'lgan Toyota Motor (Yaponiya), Toshiba (Yaponiya), IBM (AQSH), Djeneral Motorz (AQSH), Dyupon (AQSH) Djeneral Elektrik (AQSH) Transnatsionatsional korporatsiyalarga misol bo'la oladi. Muhimi shuki, butun jahon miqyosidagi shu turdagi mahsulotlarning asosiy qismini ishlab chiqarish aynan 25 ta shunday yirik korporatsiyalarda hissasiga to'g'ri keladi. Iqtisodiyotning internatsionallashuvi o'z-o'zidan buxgalteriya hisobining ham internatsionallashuviga olib keldi. Va bu jarayonda bir qancha muammolar ham borligi yaqqol ko'rinib qoldi.

Birinchidan, xalqaro tajribalarga asoslanib moliyaviy hisobot tuzish;

Ikkinchidan, xalqaro yoki milliy hisob qoidjalariga bo'ysunib amaliyotlarni bajarish;

Uchinchidan, xalqaro biznes(tadbirkorlik)ga mos ravishda axborot(informatsion)-boshqaruv tizimini tashkitl etish;

To'rtinchidan joriy hisobotlar uchun kreditni chet el valyutasida yoritib berish.

Qilingan ishlar natijasida BMT vakillari xulosaga kelishdiki, turli mamlakatlarda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotni topshirishga xilma-xil qarashlar mavjud bo'lsa

ham, dunyo xo'jaligi va moliyaviy bozorlarning internatsionalizatsiyalashuvini aks ettiruvchi umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining rivojlanish jarayoni 1973-yilga borib taqaladi. Xuddi shu yili Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Qo'shma Shtatlarning professional buxgalteriya organlari Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qo'mitasini (IASB) tuzadilar va transchegaraviy ro'yxatlar uchun Xalqaro Buxgalteriya Standartlarini qabul qilishga rozi bo'lishadi. Shunday keyin olib borilgan amaliy ishlar natijasi o'laroq 1989-yilda IASB moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish asoslarini nashr etadi - bu birinchi xalqaro "kontseptual" asosdir.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: xalqaro va milliy jihatlari. Monografiya - T «Iqtisod va moliya» 2009-yil
2. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке М.: АСКЕРИ-АССА, 2005.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B. Xasanov, A. Usanov, Z. Mamatov. T.: - 2004.
4. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. - T.: —Navro'z, 2016 y.